

## NOTO'LIQ OILANING O'ZIGA XOS IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**G'anieva Xalimaxon Axmatxonovna**

*Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi dotsenti.*

**Komilov Xusniddin Xalimjon o'g'li**

*FarDU Psixologiya yo'nalishi 1-kurs magistri*

**Annotatsiya:** *Jamiyat taraqqiyotining hozirgi holati oila oldiga o'ziga xos yangi ijtimoiy vazifalarni qo'yimoqda. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, odamlarning o'zaro muloqot, munosabatlar doirasi inson ruhiyatida hissiy emotsional o'zgarishlarni vujudga keltirmoqda va bular oilaviy hayot xarakteriga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Oilani qadriyat sifatida tavsiflash va uning jamiyat hayotidagi nufuzini ta'kidlash bilan birgalikda uni mustahkamlovchi omillarning rolini o'rganish, ayniqsa, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda kelajakka ishonch, o'z xalqi va yurti taqdiriga nisbatan mas'uliyat hislarini shakllantirish katta ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masaladir.*

**Tayanch so'z va iboralar:** *Oila, noto'lik oila, farzand, shaxs, muloqot, munosabat, ruhiyat, depressiya, emotsional holat, frustratsiya, ruhiy zo'riqish.*

## СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СВОЙСТВО СВОЕОБРАЗИЕ НЕПОЛНОЙ СЕМЬИ

**Ганиева Халимахон Ахматхоновна**

*Доцент кафедры психологии, ФерГУ*

**Комилов Хусниддин Халимжон угли**

*Магистр отделение психологии, ФерГУ*

**Аннотация:** *Комплекс навыков, такие как духовность личности, мировоззрение, представление и сила воли формируются в семье. В этом значении семья – очаг духовности и среда воспитания. Нынешнее положение процветания общества ставит перед семьёй своеобразные новые социальные задачи, Развитие науки-техники, производственные отношения, взаимоотношения людей, проявляют чувственно-эмоциональные перемены человеческой души и действуют на характер семейной жизни. Рекомендовать семью как ценность и утверждение её в социальной жизни, а так же изучение роли закрепительных свойств, особенно таких как подготовка молодёжи к семейной жизни, веру в будущее, формирование ответственности за общество и судьбу родины является актуальной проблемой большой важности.*

**Ключевые слова и фразы:** *Семья, неблагополучная семья, ребенок, личность, общение, отношения, психика, депрессия, эмоциональное состояние, фрустрация, психическое напряжение.*

## SOCIO-PSYCHOLOGICAL UNIQUENESS OF SINGLE-PARENT FAMILIES

**Ganieva Khalimakhon Akhmationovna**

*Associate Professor, Department of Psychology, Ferguson State University*

**Komilov Xusniddin Xalimjon o'g'li**

*Master's degree in psychology, Ferguson State University*

**Annotation:** *Complex of habits, such as, personal spirituality, points of veins, imagination or conception are forming in the family. The family – real hearth of spirituality and environment of upbringing. At present time prosperity of society lay dawn new social tasks before the family. The science – technical development, producing relations, interrelations of people, forms emotional changes on the man's spirituality. That's have influence to the character on the life of the family. The recommendation of the family as a religie and affirmation of it on the life of the society, besides that studying of role of role of fasten properties, especially the preparation of the youth to the family life and formation on them faith to the future, and responsibility for nation and state is a global problem of importance.*

**Key words and phrases:** *Family, dysfunctional family, child, personality, communication, relationships, psyche, depression, emotional state, frustration, mental stress.*

Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, tasavvuri va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan, oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila-haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, tarbiya omili muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar ham inson qalbi va ongiga avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati va ona mehri orqali amalga oshiriladi.

Mustaqil davlatimizda oilalarning ahloqiy, ma'naviy va ruhiy barkamolligini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan say'i-xarakterlar kun sayin ortib bormoqda. Hukumatimizning oila mustahkamligini ta'minlash, uning ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, oilaning farzandlar tarbiyalashdagi nufuzini oshirishga ko'maklashish hamda yosh er-xotinlarning moddiy hamda maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash borasidagi aniq dasturiy tadbirlari mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida e'tirof etilishini ta'minlamoqda. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek; «Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, vatan tinch bo'ladi».

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi holati oila oldiga o'ziga xos yangi ijtimoiy vazifalarni qo'ymoqda. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, odamlarning o'zaro muloqat, munosabatlar doirasi inson ruhiyatida hissiy emotsional o'zgarishlarni vujudga keltirmoqda va bular oilaviy hayot xarakteriga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Oilani qadriyat sifatida tavsiflash va uning jamiyat hayotidagi nufuzini ta'kidlash bilan birgalikda uni mustahkamlovchi omillarning rolini o'rganish, ayniqsa,

yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda kelajakka ishonch, o'z xalqi va yurti taqdiriga nisbatan mas'uliyat hislarini shakllantirish katta ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masaladir. Chunki, O'zbekiston yildan yilga rasmiy nikohlar oshib borayotgan mamlakatlardan biri bo'lib, unda nikoh ajrimlarini kamaytirish yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa yoshlarda oila va nikoh, istiqboldagi hayotga nisbatan to'g'ri tasavvurlarning shakllanganligiga, ularning optimizm ruhida tarbiyalanganligiga bevosita bog'liqdir. Afsuski, amalga oshirilayotgan say'i-harakatlarga qaramay, yoshlarning oilaviy hayotga psixologik jihatdan tayyor bo'lmaganligi, oilaning so'g'lom ma'naviy muhiti to'g'risida aniq tasavvurlarga ega bo'lmaganligi tufayli yosh oilalar o'rtasida nikoh ajrimlari hamon qayd etilmoqda.

Oilada faqat bir ota yoki ona bo'lsa, bunday oila noto'liq oila deb ataladi. Noto'liq oila haqida gapirilganda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, noto'liq oilalar turlicha yuzaga keladi. Oilada er-xotinlardan birining vafot etganligi tufayli yoki ularning ajralishi tufayli oila noto'liq bo'lib qolishi mumkin. Albatta oilada ota yoki onaning vafot etishi bu ulkan fojia, lekin bunday oilalarda marhumning ruhi hurmati, unga nisbatan, uning sha'niga ijobiy munosabatlar saqlanib qoladi. Biroq er-xotinning ajralishi sababli yuzaga kelgan noto'liq oilalarda «tirik yetim» bolalar qoladi. «Tirik yetimlik» jamoatchilik o'rtasida, ayniqsa bolalar jamoalarida (bo'g'chada, maktabda, tengdoshlar davrasida) nisbatan kuchliroq qoralanadi. Ajralish faqatgina ajralgan er-xotinlarga emas, balki ajralish oqibatida otasiz yashayotgan farzandlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ajralish otasiz yashayotgan qiz bolaning his-tuyg'ulariga, onasiga bo'lgan mehriga, qiz bolada shakllanadigan ota obraziga va otasiz o'sayotgan qizning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Ko'pincha ajralishayotganlardan ajralish sababi so'ralsa, ular qandaydir hamma uchun birdek bo'lib qolgan sabablarni ko'rsatishga harakat qilishadi. Masalan, «xarakterimiz mos tushmadi», «o'zga shaxsning aralashuvi», «qo'pollik», «moddiy qiyinchilik», «ichkilikbozlikka berilish», «yashash sharoitining noqulayligi», «otonalarning no'rin aralashuvi» kabilar. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, oiladagi ma'naviy-ruhiy iqlim qanchalik mustahkam va er-xotinlar bir-birlarini qanchalik yaxshi tushunsalar bu «sabablar» oilaning inqiroziga asosiy sabab bo'la olmaydi. Aksincha vaziyatlarda esa jamiyat uchun - noto'liq oilalar soni ko'payadi, oilalararo yoki qarindoshlararo adovat yuzaga keladi, bir jinsning ikkinchi jinsga nisbatan nafrati paydo bo'ladi, foxishabozlik ortadi, teri-tanosil kasalliklarining ortishi kuzatiladi, shaxsning ijtimoiy faoliyati susayadi. Erkaklarda yolg'izlik hissining ortishi, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilishni va turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ayollarda yolg'izlik hissining ortishi, qayta oila qurish imkoniyati cheklanganligi, nevrozlar, stresslar, turli hastaliklar, o'z joniga qasd qilish kabilarga olib kelishi mumkin.

Biz ko'p hollarda ayollarga bola-chaqa, uy-ro'zfor, oila uchun jon kuydirish, ular uchun o'zidan kechishni tarq'ib qilamiz, ulardagi bu xususiyatni eng asosiy - ayollik

sifati deb baholaymiz. Lekin aynan shunday ayollar asta-sekin o'z ayollik mohiyatlaridan uzoqlasha boshlaydilar, shaxsiy vujudiy egoizmlarini, ayol ekanliklarini unuta boshlaydilar. Ular uchun bunday hayot tarzi go'yo qoniqarlidek, shu bilan o'zlarini baxtli deb his qilsalar ham, lekin ongsiz ravishda bu holat ularda qondirilmagan mayllar tufayli paydo bo'ladigan psixik holat - frustratsiyani paydo qiladi, nimadandir ko'ngli to'lmaslik, asabiylik, xafaqonlik kabi psixik o'n g'aysizlikka sabab bo'ladigan sharoit yaratadi.

O'zbek oilalarida ota va ona, ota-ona va bolalar, bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy ko'rinishlari haqida behisob fikrlarni aytish mumkin. Odob, ahloq, andisha asosiga quriladigan bunday munosabatlar bir qaraganda to'laqonli ijtimoiy individni shakllantirish uchun yetarlidek tuyuladi. Bularning hammasi aslida oilaning baxti, oila ahzolarining qoniqish hissi uchun yetarli bo'lishi kerak edi. Lekin ming afsuski xali hozir ajralishlar sonining ko'pligi, ajralmay, lekin baxtsiz yashayotgan oilalarning yetarlicha topilishi bizning bu yerda nimanidir hisobga olmayotganligimizni, nimanidir unutib qo'yayotganligimizni, nimagadir yetarlicha e'tibor bermayotganligimizni ko'rsatadi. Fikrimizcha, ana shu nazardan chetda qolayotgan narsa bu ayolning "shaxsiy vujudiy egoizmi" bo'lishi mumkin. Ayolning "shaxsiy vujudiy egoizmi"ning to'la qondirilmaligi unda frustratsiya (qoniqtirilmagan stimullashgan ehtiyojlar mavjudligi bilan xarakterlanadigan psixik holat) vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Natijada ayolda o'z hayotidan xafsalasi pir bo'lish, asabiylik, xavotir va umidsizlik holatlari paydo bo'ladi. Onaning bu holati bevosita uning hayotiy davomchisi bo'lgan bolasining shaxsiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu narsa yaxshi ma'lumki, hayotdan quvona olmaydigan, o'z ichki mohiyatidan uzoqlashgan, shaxsiy vujudiy "egoizmini" yo'qotgan ona go'yoki "niqobda" yashaydi va o'z bolasi uchun qopqon yaratadi. Emotsiyalarining cheklanganligi sababli bunday ona o'z bolasini emotsional tobelikda ushlab turish uchun kuchli ehtiyoj sezadi va shu maqsadda o'z bolasi bilan o'zaro faoliyatning o'ziga xos usulini yaratadi. Uzoq davom etadigan "infantillik" (organizm jismoniy va psixik taraqqiyotining tormozlanishi)ni rejalashtiradigan bunday vaziyat bolaga o'z onasi bilan munosabatning primitiv usulini o'rgatadi, uning mehyordagi taraqqiyotga tomon harakatini to'xtatadi va boladan onaning har qanday yashirin istaklarini albatta bajarishni talab qiladi.

Yaxshi ona bo'lish uchun eng avvalo "ayol bo'lish" va "baxtli odam" bo'lish kerak. O'zini, hayotini, butun tabiiy ehtiyojlarini bolalarga, oilaga qurbon qilish yaxshi ona bo'lish degani emas. Bunday ona avvalo o'zini aldaydi, qolaversa o'zi xohlamagan holda, ongsiz ravishda bolalar shaxsi taraqqiyotini ham barbod qiladi.

Oila sharoitidagi ruhiy zo'riqish oila a'zolari tarkibining to'liq bo'lmasligi, o'zaro munosabatlar murakkabligi, ayollar ishlab chiqarishda, davlat tashkilotlarida mehnat qilish bilan bir qatorda uy-ro'z g'or ishlari bilan tinimsiz bandligi, charchoqdan so'ng yetarli dam olmaslik turli tana kasalliklari, depressiya, asabiy holatlarga, oila garmoniyasi buzilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari farzand tarbiyasiga nisbatan

befarqlik natijasida televizor yoki komp'yuter oldida ko'p vaqtini o'tkazadigan bolalarning kattalar olamiga muddatdan oldin kirib borishi kuzatiladi, shuningdek, bu xol bolalarda tez toliqish, parishonxotirlikni yuzaga keltiradi. Noto'liq oilada voyaga yetayotgan farzandlar er va xotin o'rtasidagi yaxlit munosabatlarning guvohi bo'lmagani uchun, ushbu munosabatlar haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmay voyaga yetadi. Yol g'iz o'zi bola tarbiyasi bilan shu g'ullanib, uni voyaga yetkazayotgan ayol bola tasavvurida ketib qolgan otasi haqida negativ (salbiy) tushunchalarni yuzaga keltirishi tabiiy xol, ayniqsa bu ajrashish o'g'ir hissiyotlarni qoldirgan bo'lsa. Otasiz voyaga yetayotgan o'g'il bola erkaklar to'g'risidagi salbiy fikrlarni ko'p eshitgan sari, bu tushunchalarning noto'g'riligiga qiyinchilik bilan ishonadi. Bu qiyinchilik esa unda ichki kurashni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Onasi tomonidan ko'p erkalatilgan yoki jamiyatda asosan, ayollar ustivor degan fikrga borgan o'g'ilda erkak kishilarga nisbatan befarqlik, bepisandlik munosabati vujudga keladi. Ko'p xollarda o'g'il boladagi yol g'iz onaga yordam berish istagi uni erkin hayotdan voz kechishga undaydi. Oqibatda ko'p o'g'il bolalarning onalari oldida qolishi natijasida qarama-qarshi jinsga ehtibor qilishi susayadi yoki aksincha onaga qarshi chiqib, uydan ketish, onani, ayolni behurmat qilish xollari uchraydi. Aybdorlik hissi kuchaygan sari bunday bolalarda ayollarga nisbatan qo'pol muomala shakllanadi yoki aksincha umri davomida ularga bo'ysunib yashash vujudga keladi.

Bundan tashqari noto'liq oilada ona tomonidan katta o'filga ota rolini yuklab, o'g'il pozitsiyasiga chek qo'yish ham kuzatiladi. Aksariyat xolatlarda yoldiz onalar yosh o'g'illariga beixtiyor mahnaviy tayziq o'tkazadilar, yahni «otangdan ko'rmaganimni sendan ko'ray», «katta bo'lsang menga unday qilasan, bunday narsa olib berasan» kabi fikr-mulohazalari bilan bolaning yoshlik davriga xos bo'lgan be g'uborlikni yo'qotib, unga katta odamning mas'uliyatini yuklab qo'yadi.

Noto'liq oilada voyaga yetayotgan qiz bola ham ayol va erkakning o'zaro munosabatlariga noto'g'ri yondashishi mumkin. Uning shaxsiy jinsiy identifikatsiyasi o'zgaruvchan bo'lishi, yahni u hayotda itoatkor bo'lib, hamma narsaga rozi bo'lishi, hech narsani talab qilmasligi, yoki aksincha, barcha narsani o'zi mustaqil qilib, erkinlikni talab qilishi kuzatiladi. Bunga misol tariqasida hozirgi kunda rivojlanib borayotgan emansipatsiya (ozod bo'lishga intilish) jarayonini keltirish mumkin. Yahni, yol g'iz ayol farzand tarbiyasida ephillikni, uddaburonlikni, tadbirkorlikni namoyon etib, oiladagi barcha muammoni o'z yelkasiga olgan oilada voyaga yetgan qiz bola turmushga chiqqandan so'ng erkakning ustun kelishiga yoki muammolarni erkak tomonidan hal qilinishiga ko'nmasligi ham mumkin. Biroq ayol-ona erkaklarga nisbatan to'fri munosabatda bo'lsa, bolalarda salbiy tushunchani vujudga keltirmaydi. Ayol o'zi tanigan, hurmat qilgan erkaklarga nisbatan o'z farzandlarida ijobiy munosabatni shakllantirish imkoniyatiga ega. Ular ayolning otasi, aka-ukalari, tanishlari bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi holatlarda ota-onalarning bola tarbiyasidagi mahsuliyatini instinkt darajasiga ko'tarish, oila a'zolariga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi an'analarni yaratish kerak bo'ladi.

Yoshlarning oilaviy hayot to'g'risidagi tasavvurlarini shakllantirishda ularning oilaviy hayotga biologik, ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy, axloqiy jihatdan yetukliklari, shaxslararo munosabatlar psixologiyasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganganliklari, emotsional hissiy munosabatlarning xususiyatlarini bilishlari muhim ahamiyatga ega. Chunki oilaning mustahkamligi ko'p jihatdan oila qurayotgan yoshlarning oilaviy hayotga qay darajada tayyorligiga bog'liq. Shuning uchun oilaviy hayot zaminida yuzaga keladigan nohush hodisalarning oldini olish, oilalar buzilishining oldini olish va noto'liq oilalar miqdorini kamaytirish, ularda har tomonlama sog'lom psixologik iqlimni yuzaga keltirish borasida amalga oshiriladigan ishlarning samaradorligi shu oilalarni yuzaga keltirayotgan yoshlarning shaxsiga, individual psixologik xususiyatlariga, ularning oilaviy hayotlarini maqsadga muvofiq ravishda tashkil etishga qay darajada tayyor ekanliklariga bog'liqdir.

Bugungi kunda bu masala yanada dolzarblikni taqozo etmoqda va davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi. Chunki, mustaqil davlatimizning taraqqiyoti kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga, ularning dunyoqarashiga, oilaviy muhitning sog'lomligiga, mustahkamligiga uzviy bog'liqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. T.: «Fan va texnologiya», 2008. 152 b.
2. Faxr ul Banot Sibgatulloq qizi. Oila saboqlari. Toshkent. 1992. - 96b.
3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. T.: «Ma'naviyat», 1998.- 12 b.
4. Axmatxonovna, G.A. X., & Iqboljon o'g'li, T.J. (2022). TALABA YOSHLARNING OILADA FARZAND TARBIYASI HAQIDAGI ZAMONAVIY TUSHUNCHALARINING PSIXOLOGIK TAHLILI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 600-606.
5. Ganieva, H. (2021). Social And Psychological Mechanisms Of Self-consciousness Of Students. European Scholar Journal, 2(4), 190-193.
6. Akhmatkxonovna, G.K. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF GENIOLOGY ASSIGNMENT IN YOUNG PEOPLE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 335-337.
7. Akhmatkxonovna, G.K., & Jamshid, T. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF SUICIDAL BEHAVIOR OF MINORS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 1053-1058.
8. Ахматхоновна, F.X. (2021). Талаба ёшларнинг ўз-ўзини англашини ижтимоий психологик механизмлари. ЎзМУ ХАБАРЛАРИ, 46-49.

9. Akhmadkhonovna, K.G., Rustamovna, A. A., & Saydolimovna, Z. D. (2022). PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(3).

10. Ganieva, K.A. (2022). PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 607-613.

11. Ganieva, K.A. (2022). PSYCHOPHYSIOLOGY OF ADDICTION OF NERVOUS PROCESSES AND RAPIDITY OF RECYCLING OF INFORMATION IN YOUTH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 607-613.

12. Ганиева, Х.А., & Закирова, Д. С. (2022). ЎСМИРЛАРДА ХАРАКТЕР АКЦЕНТУАЦИЯСИ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(4), 548-553.

13. Ахматхоновна, Ғ.Х. (2022). ШАХС ЎЗ-ЎЗИНИ АНГЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗМЛАРИ. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(5), 89-95.

14. Ganieva, K. Iqboljon O'g'li, TJ (2022). Social psychological characteristics of the dysfunctional family. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(7), 71-75.

15. G'Aniyeva, X., & Tojimamatov, J. (2022). TALABA YOSHLARNING OILADA FARZAND TARBIYASI HAQIDAGI ZAMONAVIY TUSHUNCHALARINING PSIXOLOGIK TAHLILI. *Science and innovation*, 1(B7), 517-523.

16. Ganieva, K., & Tojimamatov, J. (2020). THE ATTITUDE OF PHYSICAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF MENTAL HEALTH OF PERSON. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 87-89).

17. G'Aniyeva, X.A., & Qambarova, M.A. Q. (2023). INTELLEKTUAL SALOHİYATLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA O 'QITUVCHI IJTIMOİY INTELLEKTINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 449-454.

18. X.Ганиева, & Хакимова Mavluda. (2023). ТАЛАБАЛАРДА ГЕНИАЛЛИККА ИНТИЛИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific Impulse*, 2(13), 449–454.

19. Ганиева Халимахон Ахматхоновна, & Рузибоева Аълохон. (2023). УДК: 301.085.15. ШАХС ТАРАҚҚИЁТИДА ИЖТИМОЙ МУХИТНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. *Scientific Impulse*, 2(13), 455–464.

20. Ғаниева Х, & Сиддикова Барно. (2023). ИНТЕЛЛЕКТУАЛ САЛОҲИЯТЛИ ЁШЛАРНИ ТАРБИЯЛАШДА ЎҚИТУВЧИ ИЖТИМОЙ ИНТЕЛЛЕКТИНИНГ АҲАМИЯТИ. *Scientific Impulse*, 2(13), 472–477.
21. Ganieva H, & Siddikova Barno. (2023). THE IMPORTANCE OF THE TEACHER'S SOCIAL INTELLIGENCE IN EDUCATING YOUNG PEOPLE WITH INTELLECTUAL COMPETENCE. *Scientific Impulse*, 2(13), 478–483.
22. Pulatova Gulnoza, Toshboltaeva Nodira, //Conflict logical Competence of the Teacher as A Condition for Positive Interaction in the Educational Environment// *Eurasian Journal of Research, Development and Innovation*. Volume 14| November, 2022. 14-17 pages.
23. Пулатова, Г. (2021). Theoretical analysis of the study of the phenomenon of bilingualism. *Общество и инновации*, 2(6/S), 200-204.
24. Pulatova, G.M. (2020). WAYS TO INFLUENCE THE CHILD'S PSYCHE THROUGH FAIRY-TALE THERAPY. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 368-371).
25. Pulatova, G., & Muhammadjonov, J. (2023). 5-6 YOSHLI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK VA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(5 Part 3), 48-58.
26. Gulnoza, P., & Nodira, T. (2022). Conflict logical Competence of the Teacher as A Condition for Positive Interaction in the Educational Environment. *Eurasian Journal of Research, Development and Innovation*, 14, 14-17.
27. Nodira, T., Shoxista, M., Gulnoza, P., Yoqutkhon, K., & Mohinur, D. (2022). Exploring the development of creative thinking in small school students. *International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE)*, 14(02), 5701-5707.
28. Пулатова, Г. (2021). Билингвизмни комплекс ўрганишдаги ёндашувлар. *Общество и инновации*, 2(4/S), 769-775.
29. Pulatova, G., & Mamajonova, S. (2020, December). DEVELOPING CHILDREN'S SPEECH IN A FOREIGN LANGUAGE THEORETICAL ANALYSIS. In *Конференции*.
30. Ro'zimatjon, A., & Gulnoza, P. (2022). SHAXSNING SHAKLLANISHIDA STRESS MUAMMOSI VA TURLARI. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 5(2), 134-137.
31. Murodilovna, P.G. (2022). AGE CHARACTERISTICS OF SPEECH AND COMMUNICATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 520-523.
32. Пулатова, Г. (2021). Теоретический анализ изучения феномена билингвизма. *Общество и инновации*, 2(6/S), 200-204.
33. Makhliyo Bakhtiyorovna Yuldasheva, Nodira Ibrokhimjanovna Toshboltaeva, Gulnoza Murodilovna Pulatova, Shokhista KamoIdinovna Mamajonova, Yoqutkhon

Urinbaevna Karimjanova // Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 4, 2021, Pages. 14552 – 14558.

34. Toshboltayeva Nodira, Mamajonova Shoxista, Pulatova Gulnoza, Karimianova Yoqutkhon, Djalolova Mohinur //Exploring the development of creative thinking in small school students// International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE). Vol 14, Issue 02. 2022. 5701-5707 pages.

35. Pulatova Gulnoza, Toshboltaeva Nodira, //Conflict logical Competence of the Teacher as A Condition for Positive Interaction in the Educational Environment// Eurasian Journal of Research, Development and Innovation. Volume 14| November, 2022. 14-17 pages.

36. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Odinoxon Raxmanovna Parpiyeva //Modern Special Preschool Education: Problems and Solutions// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. Vol. 9. 06-2022. 100-106 pages.

37. Mirzajonova, E.T. (2023). O 'SMIR YOSHDAGI O 'QUVCHILARDA AXBOROTDAN FOYDALANISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 660-669.

38. Pulatova, G., & Muhammadjonov, J. (2023). 5-6 YOSHLI MAKTABGACHA YOSHDAG'I BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ERTAK VA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 3), 48-58.

39. Пулатова, Гулноза //Theoretical analysis of the study of the phenomenon of bilingualism// Общество и инновации 2.6/S (2021): 200-204.

40. Pulatova, G.M. //WAYS TO INFLUENCE THE CHILD'S PSYCHE THROUGH FAIRY-TALE THERAPY// Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020.